



**HINDIY TILIDAGI OMONIM SO‘ZLARNING FONETIK JIHLARI**

**Zubayda Nurmatova Dilshod qizi**

*3rd-year PhD researcher*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Email: [zubaydanurmatova43@gmail.com](mailto:zubaydanurmatova43@gmail.com)*

*Phone: +998 99 138 31 92*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hindiy tilidagi omonim so‘zlarning fonetik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda, ayniqsa, tovush o‘zgarishlari va fonetik konvergensiya kabi jarayonlarning omonimlarning shakllanishidagi roli yoritiladi. Shuningdek, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli manbalardan kelib chiqqan so‘zlarning bir xil fonetik shaklga kelib qolishi masalasi ko‘rib chiqiladi.*

*Tadqiqot qiyosiy-tarixiy va fonologik yondashuvlar asosida olib borilib, til taraqqiyotining turli bosqichlariga oid materiallar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fonetik omillar hindiy tilida omonimiyaning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi hamda tilning leksik tizimini boyitishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *omofon, leksik omofon, sintagmatik omofon, elizion omofon onomastik omofon, paronim;*

Til tizimida omonimlarning shakllanishi va faoliyatini o‘rganishda ularning fonetik jihati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki omonimlik hodisasi faqat semantik tafovut natijasida emas, balki ko‘pincha tovush o‘zgarishlari, urg‘u farqlari va yozilishdagi tafovutlar orqali ham yuzaga chiqadi. Hindiy tilida bu jarayon yanada murakkab ko‘rinish oladi, chunki u yozuv tizimi sifatida devanagari grafikasidan foydalanadi va bunda tovush va yozuv o‘rtasida muayyan darajada fonetik-morfologik izchillik mavjud.

Tilshunoslikda omofonlar deb talaffuz jihatdan bir xil, ammo yozilishi yoki morfem tarkibi bilan farqlanuvchi so‘zlarga aytiladi. Bunday birliklar fonetik qonuniyatlar ta’sirida yuzaga kelib, ko‘pincha turli ma’nolarni anglatadi va til tizimida omonimiyaning maxsus ko‘rinishi sifatida qaraladi. Omofonlarni o‘rganish, avvalo, fonetik hodisalarning yozuvdagi ifodalanishiga hamda nutqda ma’no ajratish mexanizmlariga aloqador bo‘lib, ular tilning leksik-semantik boyligini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Omoleksemalarga eng yaqin hodisa – omofonlardir. Omoleksemalar talaffuzda ham, yozilishda ham bir xil shaklga ega bo‘ladi. Omofonlar esa faqat talaffuz jihatidan mos kelib, yozilishida farqlanadi. Demak, til birligi sifatida leksemalarning bir jihati – talaffuz jihati teng kelib qolsa, omofonlar voqe bo‘ladi. “Til asli tovush tili bo‘lgani sababli harfiy ifoda emas, balki talaffuz hal etuvchi omil deb qaraladi va shu asosda omofonlar ko‘pincha omoleksemalar qatoriga qo‘shiladi<sup>52</sup>.

<sup>52</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T. 2006. – B. 24-25.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Adabiy nutqda omofonlar quyidagi hollarda voqe bo‘ladi:

- 1) ko‘pincha jarangli tovushning jarangsizlanishi natijasida: bob–bop, tub–tup, yod–yot, sudxo‘r–sutxo‘r; nufuz – nufus kabi;
- 2) urg‘usiz tovushning boshqa tovushdek talaffuz qilinishi natijasida: (kompaniya) - kampaniya kabi.

So‘zlashuv nutqida omofonlarning turli ko‘rinishlari voqe bo‘ladi: qalay (ma‘dan nomi) – qalay (qanday), to‘r (baliq, qush tutish quroli) – to‘r (to‘rt) kabi<sup>53</sup>.

M.Mirtojiev<sup>54</sup> “omofoniya – bir xil tovushlanish hodisasidir”, deydi. Omofoniya o‘zicha mustaqil ma‘noga ega ikki yoki undan ortiq so‘zlarning, yozilishidan qat‘iy nazar, bir xil talaffuzga ega bo‘lishidir” – deb yozadi va buni quyidagi misollar bilan isbotlaydi: bob (asarning ma‘lum bo‘lagi), bop (yaxshi) so‘zi o‘zbek tilida bir xil bop holda talaffuz etiladi.

V.V. Vinogradovning<sup>55</sup> yozishicha, “omofoniya – omonimiyaga nisbatan ancha kengroq tushuncha”. U bir xildagi talaffuz va hamohanglikning barcha turlarini – ham yaxlit konstruksiyalarda so‘z qismlarining birikmalari, nutqning alohida qismlarida, ayrim morfemalarda, hatto turdosh tovush birikmalaridagi turlarini qamrab oladi”.

Rus olimi E.Tilevning fikriga ko‘ra, omofonlar – bu fonetik jihatdan bir xil talaffuz qilinadigan, ammo morfem tarkibi turlicha va yozilishi har xil bo‘lgan so‘z shakllaridir.

Ular zamonaviy rus adabiy tilida amal qiluvchi fonetik qonuniyatlar natijasida paydo bo‘ladi. Misol: cepб [с’епп] va cepп [с’епп]. Bu yerda so‘z oxiridagi jarangli /б/ tovushi jarangsizlanib /п/ allofoniga aylanadi.

Leksik omonimlardan farqli ravishda, omofonlar bir xil yoki turli so‘z turkumlariga mansub bo‘lishi mumkin: вести (fe‘l) va везти (fe‘l), без (predlog – ko‘makchi) va бес (ot – jin, arvoh).

Yuqoridagi ta‘rifdan kelib chiqqan holda, omofonlarning omonimlardan asosiy farqi shundaki, omonimlar yozilishi ham, talaffuzi ham bir xil bo‘lgan birliklar sanaladi, omofonlar esa faqat talaffuzda o‘xshash bo‘lib, yozilish jihatidan farqlanadi.

Demak, omofonlar fonetik omonimlar bo‘lib, ularning til tizimida paydo bo‘lishi fonetik qonuniyatlar ta‘siri bilan bog‘liq. E. Lastochkina mariy tilidagi omofonlarni 4 turga bo‘lgan.

1. Leksik omofon - E. Lastochkinaning fikricha, omofonlar — bir xil talaffuz qilinadigan, ammo yozuvda va ma‘no jihatidan farqlanuvchi so‘zlardir. Bu fikrga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q, chunki, yet [y’et] sening yog‘ing va yed [y’et] yoltoq bo‘l, куб [куп] kub va куп [куп] botqoqlik kabi so‘zlar talaffuzda bir xil bo‘lib, bu holat so‘z oxiridagi jarangli undoshlarning jarangsizlanishi natijasida yuzaga keladi.

2. Sintagmatik omofon - bu omofoniya turida butun frazalar yoki so‘z birikmalari fonetik jihatdan bir xil eshitiladi. Misollar:

<sup>53</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T. 2006. – B. 24.

<sup>54</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида омонимларнинг пайдо бўлиши. Филол. фан.ном...дисс. – Т., 1963. – Б 10.

<sup>55</sup> Виноградов В.В. Исследования по русской грамматике (Избранные труды). – М.: Наука, 1975. – С. 297.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



А ближе теснина (“yaqin darada”) - Оближет еснина (“Yesnina yalaydi”).

Bunday omofoniya rus tilidagi fonetik jihatdan zaif pozitsiyalar tufayli alohida so‘zlarda emas, balki murakkab sintagmalarda ko‘rinadi<sup>56</sup>.

3. Onomastik omofon - mariy tilidagi omofonlarning yana bir xususiyati — atoqli ot shakllarining turdosh otlar bilan fonetik jihatdan mos kelishidir; aynan shu yo‘l bilan fonetik omonimlarning katta qismi hosil bo‘ladi. Masalan: Шокшем — Sernur tumanidagi qishloq nomi va шокшем — mening yengim, Шопкер — qishloq nomi va шопкер — terakzor turi, Салтак — qishloq nomi va салтак — askar, Руэм — posyolka nomi va руэм — kesmoq fe‘lidan: men kesaman, Онапу — qurbonlik daraxti va она пу [онапу] — bermaymiz.

4. Elizion omofon - ba’zi omofonlar talaffuz jarayonida tovushlarning tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan: кадр [кадр] — kadr va кадыр [кадр] — egri, пуш [пуш] — qayiq va пуюш [пуш] — berdi, пуршо [пуршо] — tishlaydigan va пурьюшо [пуршо] — kirgan, руш [руш] — rus va руюш [руш] — kesdi.

Mazkur klassifikatsiyaga asoslanib, hindiy tilidagi omofonlar to‘rt guruhga ajratilib tahlil qilindi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun Shubh Nath Sinhning “Samanya Hindi<sup>57</sup>” asaridan 612 ta omonimik birlik tanlab olindi.

1. Leksik omofon – Vachandev Kumarning “बृहत् व्याकरण भास्कर<sup>58</sup>” [bṛhat vyākaraṇ bhāskar] asarida omofonlarga shunday ta’rif berilgan: ko‘plab so‘zlar bir-ikki harf yoki unli farqiga qaramay, eshitilganda bir xil bo‘lib tuyuladi, lekin ularning ma’nolari ancha farq qiladi. Bunday so‘zlar “shruṭisam (eshitilishida o‘xshash) bhinnārthak (ammo ma’nosi turlicha)” deb ataladi. Ularga e’tibor bermaslik natijasida bir ma’no o‘rniga boshqa so‘zni yozib qo‘yish xatosi yuz beradi. Shuning uchun ularga qayta-qayta e’tibor berish kerak. Olim ushbu asarda 277 ta leksik omofonlarni misol qilib keltirgan.

अंक [aṅk] son, miqdor: साहित्य कुंज का यह अंक भी पूर्व के प्रत्येक अंक की तरह ही बहुत बढ़िया बना है<sup>59</sup>। [Sāhitya kunj kā yah aṅk bhī pūrv ke pratyek aṅk kī tarah hī bahut baṛiyā banā hai.] “Adabiyot maskani” jurnaliningbu soni ham avvalgi soni kabi juda a’lo darajada chop etilgan.

अंग [aṅg] tana a’zosi: सोते समय शरीर को पूर्णतया बन्धन युक्त चीजों से मुक्त करके सोएं, जिससे शरीर के हर अंग को आराम मिल सके<sup>60</sup>। [Sote samay sharīr ko pūrṇatayā bandhan yukt chīzōñ se mukt karke soen, jisse sharīr ke har aṅg ko ārām mil sake]. Uxlayotganda tanani siqib turadigan narsalardan to‘liq xalos bo‘lib uxlash kerak, shunda tananinghar bir a’zosi dam oladi.

<sup>56</sup>Голев, Н.Д. Омофонический и омографический фонды современного русского языка. Часть 1. - С.1.

<sup>57</sup> Sinh SH.N. Samanya Hindi. – Delhi, 2021. – P. 187-198.

<sup>58</sup> Kumar V. बृहत् व्याकरण भास्कर. – Patna, 2018. – P. 227.

<sup>59</sup> <http://mediamorcha.com/entries/2014/8>

<sup>60</sup> <http://www.aapkisaheli.com/articles/health-and-beauty.html>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



उत्पाद [utpād] mahsulot, ishlab chiqarilgan narsa: एक जिला एक उत्पाद योजना के लिए बजट में धनराशि की व्यवस्था की जाएगी<sup>61</sup>। [Ek zilā ek utpād yojanā ke liye bajat meñ dhanrāshi kī vyavasthā kī jāegī]. Bir tuman bir mahsulot dasturi uchun budjetda mablag‘ ajratiladi.

उत्पात [utpāt] tartibsizlik, g‘alayon, bezovtalik: क्या ईद के बाज़ार में लोग शराब पीकर उत्पात करते हे क्या<sup>62</sup>? [Kyā id ke bāzār meñ log sharāb pīkar utpāt karte haiñ kyā?] Eid bozorida odamlar spirtli ichimlik ichib tartibsizlik qilishadimi?

2. Sintagmatik omofonlar - hindiy tilidagi sintagmatik omofonlar fonetik jihatdan unli tovushlarning cho‘ziq-qisqaligi, undoshlarning reduksiyaga uchrashi (qisqarishi yoki tushib qolishi), ligaturalarning (qo‘shma undoshlarning) soddalashuvi hamda tovush almashinuvi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli ular yozuvda grafemik jihatdan farqlansa-da, og‘zaki nutqda fonetik jihatdan yaqinlashib, ayrim hollarda bir xil talaffuz qilinadi va faqat kontekst (sintagmatik muhit) orqali farqlanadi. Mazkur turga jami 18 ga yaqin omonimik birlik aniqlandi.

इत्र [itr] hushbo‘y hid;

इतर [itr] boshqa, boshqa turdagi, qolgan;

कर्ण [karn] ism, tana a‘zosi quloq;

करण [karn] kelishik turi;

कर्कट [karkaṭ] saraton, rak;

करकट [karkaṭ] axlat, chiqindi

कर्त्ता [karttā] kelishik turi, qiluvchi, bajaruvchi;

करता [karta] karna fe‘lining shakli;

कृत [kr̥t] qilmoq, qilingan;

क्रीत [krīt] sotib olingan;

कर्कट [karkaṭ] saraton: अधिकांश कर्कट एक गांठ या अबुर्द बनाते हैं, लेकिन कुछ, जैसे रक्त कर्कट (श्वेतरक्तता) गांठ नहीं बनाता है<sup>63</sup>। [Adhikānś karkaṭ ek gāñṭh yā aburd banāte haiñ, lekin kuch, jaise rakt karkaṭ (śvetraktatā) gāñṭh nahīñ banātā hai]. Ko‘pchilik saraton turlari tugun yoki o‘sma hosil qiladi, ammo ba‘zilari, masalan qon saratoni (leykemiya), tugun hosil qilmaydi.

करकट [karkaṭ] axlat, chiqindi: उन्हें हमने कूड़ा करकट, विषाक्त मल-जल और गंदगी का आगार बना दिया है<sup>64</sup>। [Unheñ hamne kūṛā karakaṭ, viṣākt mal-jal aur gandagī kā āgār banā diyā hai]. Biz ularni axlat-chiqindi, zaharli oqova suv va iflosliklar to‘plangan joyga aylantirib qo‘ydik.

<sup>61</sup> <http://upnewslive.com/?cat=78>

<sup>62</sup> <http://khabarkikhabar.com/archives/556?replytocom=580>

<sup>63</sup> <https://hi.unionpedia.org/%E0%A4%AB%E0%A4%B2>

<sup>64</sup> <https://hindi.indiawaterportal.org/content/badhataa-jala-paradausana-aura-garaamaya-jaivana/content-type-page/26244>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



3. Onomastik omofon – hindiy tilida atoqli otlar shaxs, joy, bayram, kun hamda oy nomlarini ifodalovchi leksik birliklar hisoblanadi<sup>65</sup>. Hindiy tilida onomastik omofonlarga quyidagi birliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

a) shaxs nomlari: राखी I [Rākhī] qiz bolaning ismi, राखी II [rākhī - rakṣā] himoya ipi, muqaddas ip; राज I [Rāj] o‘g‘il bolaning ismi, राज II [rāj] qirol, hukmdor, podshoh;

b) oy nomlari: जून I [jūn] iyun oyi; जून II [jūn] tug‘ilish, dunyoga kelish, mavjudlik;

c) tillar: चीनी I [cīnī] xitoycha, xitoyga oid; चीनी<sup>66</sup> II [cīnī] shakar;

4. Elizion omofon – hindiy tilida elizion omofonlar tovushlarning(asosan unlilarning) tushib qolishi natijasida yuzaga kelib, turli grafemik shakllarning fonetik jihatdan yaqinlashuviga olib keladi va ular faqat kontekst orqali farqlanadi. Mazkur guruhga 45 ta omonimik birlik misol qilib keltirildi hamda tahlil qilindi.

अनल [anal] olov;

अनिल [anil] shamol;

आकर [ākār] kon, xazina, dengiz, okean;

आकार [ākār] shakl, ko‘rinish;

उदर [udar] qorin, oshqozon;

उदार [udār] kengko‘ngil, saxiy;

Hindiy tilida mavjud bo‘lgan uch sibilant fonema — til oldi /s/ (स), sof sirg‘aluvchi /ś/ (श) va retrofleks /ṣ/ (ष) artikulyatsion jihatdan farqlansa-da, Bihar, Jharkhand va Sharqiy Uttar-Pradesh hududlarida ular talaffuzda [s] tovushiga neytrallashib, अंस–अंश kabi birliklarda fonetik asosli omofoniyani yuzaga keltiradi; shu bilan birga, adabiy til me‘yorida ushbu fonemalar o‘zaro aniq farqlanadi, ya’ni ular mustaqil fonemalar hisoblanadi, shuning uchun s–sh (स–श) bilan keluvchi so‘zlar to‘liq bir xil talaffuzga ega emas va faqat qisman fonetik o‘xshashlikka ega bo‘lgani sababli bizning tasnifimizda omofon emas, balki paronimlar sifatida baholandi<sup>67</sup>. Mazkur yondashuv asosida biz s–sh (स–श) fonemalari bilan bog‘liq 38 ta paronimik birlikni aniqlab, ularni fonetik va semantik jihatdan tahlil qildik.

सकल [sakal] butun, barcha;

शकल [śakal] shakl, qiyofa;

कस [kas] mahkamlash, siqish, bosish;

कश [kaś] qamchi;

अशक्त [aśakt] kuchsiz, ojiz;

असक्त [asakt] beparvo, beg‘am;

S–Ś–Ṣ tovushlarining neytrallashuvi va omofoniya hosil bo‘lishidagi roli

Uttar-Pradeshning Atrali (Aligarh tumani) dialekti bo‘yicha o‘tkazilgan “Hindustani Dialect Analysis at Phonological Level” tadqiqoti fonetik neytrallashuv jarayonini tasdiqlaydi. 48 nafar respondent nutqi tahlili natijasida /kh/ ↔ /x/ hamda /s–ś–ṣ/ tovushlarining talaffuzi yosh, diniy mansublik va ijtimoiy omillarga bog‘liq holda farqlanishi aniqlangan. Xususan, स, श, ष fonemalarining [s] tarzida neytrallashuvi अंस–अंश, असर–अशर

<sup>65</sup> Sahay Ch., Chaturvedi A. व्यावहारिक हिंदी व्याकरण और वार्तालाप. – Agra, 2016. – P. 11.

<sup>66</sup> <https://www.topprnaton.in/proper-noun-in-hindi-definition-rules-and-examples/>

<sup>67</sup> <https://dranshublog.com/sa-sha-sh-conundrum/>



kabi birliklarda omofonik talaffuzni yuzaga keltiradi. Bu holat fonologik tizimdagi farqlovchi belgilar kamayishi natijasida semantik noaniqlik va yangi omonimik birliklarning shakllanishiga olib keladi. Shu bilan birga, mazkur fonetik o'zgarishlar sotsiolingvistik jihatdan ham ahamiyatga ega bo'lib, ular so'zlovchining hududiy va madaniy identifikatsiyasini aks ettiradi. Demak, fonetik neytrallashuv hindiy tilida nafaqat fonologik, balki ijtimoiy va semantik darajalarda namoyon bo'luvchi kompleks til hodisasi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, omograflar – bu yozilishda bir xil, lekin urg'u o'rniga ko'ra farqlanadigan so'zlardir<sup>68</sup>.

Xulosa qilib aytganda, hindiy tilida omofonlar Talaffuzi bir xil, yozuv va ma'no jihatdan bir-biridan farq qiluvchi so'zlardir. Mazkur maqolada omofonlar N.D.Golevning klassifikatsiyasiga asoslangan holda leksik, sintagmatik, onomastik va elizion turlarga bo'lib o'rganildi hamda tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, leksik omofonlar eng samarali deb topildi.

स/s, श/ś, ष/ṣ ishtirokidagi so'zlar bir-biriga yaqin talaffuz qilinganligi sababli paronim so'zlar deb topildi hamda ularning soni 38tani tashkil qildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Голев, Н.Д. Омofонический и омографический фонды современного русского языка. Часть 1. - С.1.
2. Виноградов В.В. Исследования по русской грамматике (Избранные труды). – М.: Наука, 1975. – С. 297.
3. Kumar V. बृहत् व्याकरण भास्कर. – Patna, 2018. – P. 227.
4. Миртожиев М. Ўзбек тилида омонимларнинг пайдо бўлиши. Филол. фан.ном...дисс. – Т., 1963. – Б 10.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т. 2006. – В. 24-25.
6. Sinh SH.N. Samanya Hindi. – Delhi, 2021. – P. 187-198.
7. Sahay Ch., Chaturvedi A. व्यावहारिक हिंदी व्याकरण और वार्तालाप. – Agra, 2016. – P. 11.

Internet saytlari:

1. <http://mediamorcha.com/entries/2014/8>
2. <http://www.aapkisaheli.com/articles/health-and-beauty.html>
3. <http://upnewslive.com/?cat=78>
4. <http://khabarkikhabar.com/archives/556?repytocom=580>
5. <https://hi.unionpedia.org/%E0%A4%AB%E0%A4%B2>
6. <https://hindi.indiawaterportal.org/content/badhataa-jala-paradausana-aura-garaamaya-jaivana/content-type-page/26244>

<sup>68</sup> Голев, Н.Д. Омofонический и омографический фонды современного русского языка. Часть 1. – С. 4.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



7. <https://www.topprnation.in/proper-noun-in-hindi-definition-rules-and-examples/>
8. <https://dranshublog.com/sa-sha-sh-conundrum/>
8. Голев, Н.Д. Омофонический и омографический фонды современного русского языка. Часть 1. – С. 4.

